

**E.K. MEYENDORFF REPORT ON THE JOURNEY TO BUKHARA AND RETURN****Jakhongir.A. Daminov***PhD Student**Shakhrisabz State Pedagogical Institute**E-mail: daminovjakhongir@gmail.com**Shakhrisabz, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Bukhara, expedition, A.F. Negri, E.K. Meyendorff, trade, Russia, Central Asia, diplomacy, geography, ethnography.

Received: 03.10.25**Accepted:** 04.10.25**Published:** 05.10.25

Abstract: The article analyzes the reports of E.K. Meyendorff on his journey to Bukhara in the early 19th century within the framework of the Russian diplomatic and trade mission led by A.F. Negri. It highlights the political and economic goals of the expedition, including trade expansion, mapping and the release of Russian captives.

The novelty of the work lies in presenting the mission as not only a diplomatic attempt but also as an intelligence-gathering enterprise, combining political, geographical, and ethnographic observations.

The results show that despite the failure to conclude official agreements, valuable information about Bukhara's internal life, trade routes, natural resources, and neighboring states was collected.

The study concludes that Meyendorff's report became one of the main sources for studying Bukhara and Central Asia in Russian and European oriental studies.

E.K. MEYENDORFFNING BUXOROGA SAFAR VA QAYTISH BO'YICHA HISOBOTI**Jaxongir.A. Daminov***Tayanch Doktorant**Shahrisabsz davlat pedagogika instituti**E-mail: daminovjakhongir@gmail.com**Shahrisabsz, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Buxoro, ekspeditsiya, A.F. Negri, E.K. Meyendorff, savdo, Rossiya,

Annotatsiya: Maqolada XIX asr boshlarida A.F. Negri boshchiligidagi rus diplomatik va savdo missiyasi doirasida E.K.

Markaziy Osiyo, diplomatiya, geografiya, etnografiya.

Meyendorfnining “Buxoroga sayohat qilish va qaytish” hisobotlari tahlil qilinadi. Unda ekspeditsiyaning siyosiy va iqtisodiy maqsadlari – savdoni kengaytirish, xarita tuzish, rus fuqarolarini ozod qilish masalalari yoritiladi. Ishning yangiligi shundan iboratki, missiya nafaqat diplomatik urinish, balki siyosiy, geografik va etnografik kuzatuvlarni jamlagan razvedka vazifasini ham bajargan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, rasmiy bitimlar tuzilmaganiga qaramay, Buxoro ichki hayoti, savdo yo‘llari, tabiiy boyliklari va qo‘shni davlatlar haqidagi qimmatli ma‘lumotlar to‘plangan. Meyendorfnining asari rus va yevropa sharqshunosligida Buxoro va Markaziy Osiyoni o‘rganishdagi asosiy manbalardan biriga aylangan.

Е.К. МЕЙЕНДОРФ. ОТЧЁТ О ПУТЕШЕСТВИИ В БУХАРУ И ВОЗВРАЩЕНИИ

Жахонгир А. Даминов

Докторант

Шахрисабзский государственный педагогический институт,

E-mail: daminovjakxongir@gmail.com

Шахрисабз, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Бухара, экспедиция, А.Ф. Негри, Э.К. Мейендорф, торговля, Россия, Средняя Азия, дипломатия, география, этнография.

Аннотация: В статье анализируются отчёты Э.К. Мейендорфа о его путешествии в Бухару в начале XIX века в рамках российской дипломатической и торговой миссии под руководством А.Ф. Негри. Особое внимание уделяется политическим и экономическим целям экспедиции: расширению торговли, составлению карт, освобождению русских пленников. Новизна работы заключается в рассмотрении миссии не только как дипломатической попытки, но и как разведывательного предприятия, объединяющего политические, географические и этнографические наблюдения. Результаты показывают, что, несмотря на отсутствие официальных договоров, были собраны ценные сведения о внутренней жизни Бухары, торговых путях, природных ресурсах и соседних государствах. Делается вывод, что отчёт Мейендорфа стал одним из важнейших источников для изучения Бухары и Средней Азии в российском и европейском востоковедении.

Kirish. XIX asrning birinchi yarmida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo bilan qiziqishlari avvalo savdo-sotiqni rivojlantirishga, tijorat karvonlarining xavfsizligi, qullikka tushib qolgan rus fuqarolarini qaytarishga qaratilgan edi. O'rta Osiyo, xususan Buxoro amirligiga yuborilgan ekspeditsiyalarning deyarli barchasi xonliklar chegarasidagi forpost Orenburgdan yo'lga chiqqan. 1819-yilda tashkil etilgan Osiyo komiteti shu yilning o'zida "Rossiya yuqori Osiyosi bilan Xiva-Buxoro savdosini kuchaytirish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqqan"[8]. Ammo chor hukumati bu loyihani rad etib, dastlab diplomatik yo'llarni tanladi. Avval tashqi ishlar Vaziri K.V. Nisseldorfning xati bilan M.Bekchurin 1820-yilda Buxoroga A.F.Negri ekspeditsiyasi yuborildi. Bungacha diplomat etnografik tarjimon M.Bekchurin 1780-1781 yillarda Orenburgdan Buxoroga, 1803-yilda Ya.I Gvardeyskiy karvoni bilan Buxoroga borgan edi[11].

Turk, fors tillarini yaxshi bilgan sharq bilimdoni hisoblangan A.F. Negri 1818-yildanoq katta maslahatchi lavozimini egallagan edi.

Uning missiyasi vazifalariga nafaqat rus-buxoro tijorat aloqalarini, balki siyosiy vaziyatni ham o'rganish kirgan. Ko'rsatma bo'yicha tabiiy boyliklar, amaldorlar, O'rta Osiyo hukmdorlari orasidagi munosabatlarni buzish Afg'oniston, Eron, Usmoniylar imperiyasi, shimoliy Hindistondagi ahvol to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash maqsadlari kirgan. Sirdaryo, Amudaryo bo'ylab kelajakda paroxodlar qatnovini yo'lga qo'yish istiqboli uchun marshurtlar belgilash, Yevropa maxsulotlarining qaysi turiga eng kuchli talablar borilgini aniqlash va bu maxsulotlarni qanday qilib boshqa davlatlar orqali olayotganligini ham aniqlash zarur edi[11].

10-oktyabr 1820 yilda Negri missiyasiga naturalist Pander qo'shiladi. Missiya hech bir rasmiy kelishuvga erisha olmagan bo'lsada, to'plangan josuslik hujjatlari chorizm hukumati uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi[7].

Buxorodagi 3-oylik safardan keyin, 1821-yil 23-martda orqaga qaytgan Negri missiyasi Sirdaryo orqali may oylarida Rossiyaga qaytib borishga muvaffaq bo'ldi. Safar davomida Negri asirlikka tushib qolgan Rossiya imperiyasi fuqarolaridan 7 nafarini sotib oladi. 8 nafari o'zlari Negriga borib qo'shiladi. Negri missiyasida hech bir hujjatlar imzalamagan bo'lsada, "Buxoroni yaqindan bilish" niyatiga erishildi, faqat, 4 yildan keyingina Buxorodan amir Haydar elchilari Peterburgga boradilar. Negri amir va qushbegi bilan bir necha bor uchrashib, ularni savdo karvonlarini Sirdaryogacha Buxoro chegarachilari Sirdaryodan Orenburggacha rus chegarachilari kuzatib karvonlar xavfsizligini taminlash mumkinligiga ishontirishga uringan.

Safar yakunlari bo'yicha hisobotlar 1821-yilda "Сибирский вестник", "Отечественные записки", "Исторический, статистический и географический журнал" "Вестник Европы" jurnallarida chop etildi. 1823-yilda Berlinda nemis tilida E.Xersshonning "Путишествие из Оренбурга в Бухараю" maqolasining birinchi qismida Buxoroga borish yo'l ko'rsatkichi,

o'lkaning botanika va geologiya va etnografiyasiga oid, ikkinchi qismida tarixi, iqtisodiy ahvoli, diniy-ma'naviy hayoti va poytaxt memorchiligiga e'tibor qaratilgan.

Missiya tomonidan "Tarixi Muqimxon" asarining qo'lyozmalarining olib ketilishi orientalist O.I. Senkovskiy tomonidan fransuz tilida chop etilishi "Buxoro xonligi tarixini o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qildi[1].

Keyinroq sobiq sovet davrida 1956 yilda bu asar A.A. Semenov ko'rsatkichlari bilan rus tilida chop etildi[4].

Missiya maqsadi qirg'izlar yoki boshqa "yovvoyilar" tomonidan asir olingan, qul qilib sotilgan rus fuqarolarini aniqlash, qaytarish ham bo'lgan. Asli kelib chiqishi yunon bo'lgan, Rossiya imperiyasi tashqi ishlar vazirligida yaqindagina tashkil etilgan "Osiyo bo'limining" maxfiy maslaxatchisi A.F.Negri boshchiligidagi ekspeditsiya Orenburgdan Sirdaryogacha bo'lgan hududlarda harbiy qal'alar ko'rish uchun joylarni aniqlash, o'lkaning "general xaritasini" tuzish shaharlarning himoyalaniish darajasini o'rganishi kerak edi. Qo'shnlarning soni, tuzilishi, ma'muriy tuzilishi, boshqaruvi, qo'shni davlatlar bilan aloqalarni aniqlash 25-yillik tajribaga ega shtab-kapitan Meyendorf tomonidan aniqlangan. Barcha topografik ishlar V.D.Valxovskiy tomonidan xaritaga tushirilgan. Meyendorfnings "Buxoroga sayohat qilish va qaytish" hisobotida barcha maxfiy josuslik ma'lumotlari kiritilgan[4].

Meyendorfnings ushbu asari dastlab 1822-yilda, sobiq sovet davrida 1956-yilda Semenov tahrirligida, 1975-yilda Xalfin tahrirligida chop etilgan bo'lib, 3 kitobdan iborat bo'lgan.

Meyendorf asarining ikkinchi bobida O'rta Osiyo, uning ma'muriy bo'linishi, umumiy ko'rinishi, tog'lari, daryolari, Orol dengizi va botqoqliklari, tabiati, geografik joylashuvi, yoritilgan, Surxon voxasiga oid ma'lumotlar, jumladan To'palang va Amudaryo haqida, "G'uzor yo'lidan Denov orqali Hisorga borish mumkinligiga, bu yo'lning shimolida Amudaryo tomonga enkayib borgan tog'lik yurt borligi, bu tog'lar orqali Qarshi va Denov orasida Balx va Qobulga karvonlar qatnaganligini xaritaga kiritgan.

Meyendorf Buxoro Samarqand Qarshi yoki Nasaf Xo'jand, Darvoz, Hisor Qorategin kabi shaharlar bilan bog'liq ma'lumotlar to'plangan. Kelajakdagi Afg'onistonni strategik maqsadlarni ko'zlab unga boradigan yo'llar xaritasini tuzgan. Meyendorf yozishicha, Buxorodan Hirotgacha yo'lda 4000 ming xonadon yashaganligi, Buxorodan Hirotga Kerki, Amudaryodan Andxoy orqali o'tgan. Buxorodan 25 verst o'tib tuyachilik bilan shug'ullanadigan qirg'izlar yashaydigan dashtlar boshlanib ketganligini ma'lum qiladi. Hirotga boradigan yana bir yo'l Chorjo'y marshtruti bo'lib, Marv orqali o'tgan. Marvga yetish uchun yo'l harajatlari ikki barobar masofadan sarflanishini kelajagda qayd etib, bu kabi noqulayliklarni bartaraf etish lozim deb hisoblagan.

Meyendorf sayohatlari davomida qayerda kimlar yashaganini, aholi uylari soni, mashg'uloti, etnografiyasi, diniy masalalariga ham to'xtalib o'tgan, Maymama, Andxoy, Balx,

Badaxshon, Ko'lob, Hisor, Shahrisabz mustaqil xonliklar bo'lganligini, aholisi asosan g'alchalar, sharqiy forslar, emutlar, xadoriylar, shia ko'chmanchilari, ashg'oniylar, darvoziklar yovvoyi ko'chmanchilardan iborat deb yozadi [6, 27-31].

Meyendorf Turkiston aholisi qirg'izlar va uncha ko'p bo'lmagan o'zbeklardan iborat, Toshkentda eng kam 3000 xonadon istiqomat qilishini bildiradi. Shuningdek Toshkentda 10 ta madrasadan, 3 tasi Buxoro usulida qurilganligi, Chirchiqdan keladigan suv 20 verst uzoqlikdan shaharni ta'minlab turganligini, asosan paxta, ipak yetishtirilganligini ma'lum qiladi [6].

Meyendorf 2 katta daryo Amudaryo va Sirdaryoning Orolga borib quyilishini, Amudaryo Surxob yoki Vaxch, Badaxshon suvlarining quyilishidan janubiy-sharqdan boshlanishini, Kofirnixon, To'palang, G'ushel kabi daryo suvlarining Amudaryoga borib quyilishini, kengligi 200 dan 300 sajngacha yetishini ham bildiradi. Shuningdek qadimgi Oks haqidagi XVI-XVII asr sayohatchilarining o'zlari ko'rmagan Amudaryo to'g'risida Ptolameyning "Geografiya" asarlaridan misol keltirganliklarida ayblaydi[6].

Meyendorf Sirdaryoning O'rta Osiyoning shimoliy-sharqidan boshlanishini, Amudaryo Stepan Razinning 1670-yildagi Xiva bilan to'qnashuvlaridan keyin yo'nalishi burib yuborilganligini ta'kidlaydi. A.Djenkinsonning 1559-yilgi ma'lumotlariga ko'ra Oksus avval Kaspiy dengiziga quyilgan, ammo endi u Orolga quyilmoqda deb yozganligini ham keltirib o'tadi[6].

Qo'qon shahrida 6000 ming xonadon yashagan, Qo'qon kattaligi bo'yicha Buxoroga teng bo'lganligini Hisorda 3000 xonadonni (deyarli hammasi o'zbeklar, tojiklar ancha kam lekin juda badavlat) ham aniqlaydi. Shuningdek Afg'onistondagi Astrobod shahrida 20 ming aholi, Qorako'l Buxorodan keyin 2-o'rinda, aholisi 30 ming ligini. Vobkentda 300 xonadon[6:91] yashashini ham hisobotlarida keltiradi.

Meyendorf ikkinchi kitobining 5-bobida Hisor, Ko'lob, Rash, Badaxshon, G'alcha xonliklari, Darvoz daryosida oltin qazib olinishi, Shahrisabz xonligi, Balxdan Qobulga va Buxorodan Hirotga boruvchi marshurti tasvirlaydi, yo'l ko'rsatkichlarini tuzadi, to'xtash mumkin bo'lgan manzillarni belgilaydi.

Mustaqil xonlik (beklik) lar orasida eng boyi Hisor begi bo'lib u amirning qaynotasi, amirning eng ishongan odami bo'lganligini takrorlaydi[6:35].

Hisor begi Hisor shahrida, Sarijo'y yoki Kofirnixon qirg'oqlaridan 15 verst g'arbdagi mustahkam qo'rg'onda yashab, o'lkani boshqarganini tasdiqlaydi.

Hisordan keyin eng katta shahar Denov, keyin Sarijo'y, To'palang, Regar, Qoratog', Dashtnobod, Cho'kmazor, Xo'jatomon Rovmit – hisoblangan. Hisordan 100 verst shimoldagi katta shahar Rametdan urush harakatlari davrida 10 ming askari bo'lgan. [6:36].

Meyendorf Ko'lob – Hisordan sharqroqda, Badaxshondan Qo'qon yo'lida joylashgan 3000 ming xonadondan iborat mustaqil shahar, beklik bo'lib aholisi asosan o'zbeklar bo'lib dehqonchilik bilan shug'ullanganliklarini tavsiflaydi. Meyendorfnings yozishicha Obigarm xonlari Hisor beklari bilan tez-tez urushib turgan. Badaxshon bu shaharlarning eng janubida bo'lib, poytaxti Fayzobod shahri hisoblangan. Badaxshon daryosi qirg'oqlarida joylashganligini safar xaritasiga tushiradi[6:37].

Meyendorfga ko'ra, Hindistonning Kashmiriga borish uchun Badaxshondan Qashg'ar yoki Peshovarga yoki Badaxshonni Kashmirdan ajratib turuvchi o'tib bo'lmas tog'laridan yo'lni qisqartirib, amallab o'tib borish kerak.

Buxorodan sharqdagi viloyatga, Hisordan shimolda g'alchalar, qashshoq lekin mustaqil xalq yashagan. Rus sayyohlari ularni sharqiy forslar deb ataganlar, ular sunniy musulmonlar bo'lib, forschadan boshqa tilni bilmaganlar. Matcha va Yag'nau Qo'qondan janubdagi g'alchalar yashaydigan shaharlar bo'lib, aholisi mahsulot ayriboshlash uchun Qo'qonga ko'p borgan. Qorategindan boshlab musulmonlar uchrashmaganligini ham Meyendorf safar kundaligida qayd etadi[6:38].

Kofirlar Kalamxum, Darvozda asosiy aholi hisoblangan, ular nihoyatda yashash qiyin tog'li joyda murakkab sharoitlarda kun kechirganlar.

Darvoz oltinga boy bo'lganligi sababli doimiy kurashlar markazida turganligini, Darvoz xalqi bundan qattiq qiynalganligi ham ma'lum qilinadi.

Badaxshondan janub va sharqda siyohpo'shlar yoki sikponlar yarim ko'chmanchi, musulmon bo'lmagan aholi istiqomat qilganligini asosan chorvachilik bilan shug'ullanganliklari qayd qilinadi.

Sikpon so'zining o'zi qora kiyim degani bo'lib, asosan qora qo'ylarning po'stinidan kiyim kiyishganlari uchun shunday nom olganlar. Sikpondan Xulm va Peshovarga borish uchun ularning O'tror [6:42] shahridan Qunduz shahriga o'tib borishgan.

Meyendorf Shahrisabzni Muhammad Rahimxon qo'shib olganligini, ammo vafotidan keyin yana mustaqil bo'lib olganligini (1753) ta'kidlaydi.

Mahalliy tujjorlar paxta, bo'yoqlar uchun ildizlar, temir, charm va boshqa mahsulotlarni Rossiyaga olib borib sotganlar. Urush vaqtida Shahrisabz xoni 20 ming otliqdan iborat qo'shin tuza olganligini, Shahrisabzga Duoba, Kitob, Jouz, Pitaxona[6:43], Yakkabog', O'taqo'rg'on, Kesh shaharlari bo'ysungan.

Muallif xonliklarning chegara davlatlar bilan munosabatlariga ham izoh beradi. Afg'onistonga yo'l Buxorodan Qobulga 392 verst bo'lib, karvonlar 12 kunda Balxga yetib borganligini, Balx, Qobul, Maymana, Andxoy va boshqa shaharlari, Afg'oniston xonlari, transit

yo'llar to'g'risida ham muhim ma'lumotlar to'playdi, inglizlarning Afg'onistondagi siyosatini o'rganadi[6:43].

Afg'on-Buxoro aloqalarida muhim bo'lgan asosiy yo'llar odatda Buxorodan Hirotga borish uchun Kerki-Amudaryo-Andxoy orqali Hirotga borilganligini tasdiqlaydi. Taxminam bu yo'l atrofida 4 ming xonadon istiqomat qilganligini ham ma'lum qiladi. Buxorodan Qarshigacha 150 verst yurib, Kerkini chapga qoldirib, Chorjo'yga borilganligini xaritaga belgilaydi. Chorjo'ydan asosiy yo'l Amudaryo orqali Hirotgacha borganligini bildiradi. Chorjo'ydan Marv orqali yo'l uzoq va mashaqqatli sahro yo'li hisoblanganligi, Afg'onistonga o'tishda Amudaryoning kengligi 200, chuqurligi 4-5, tashqi qirg'og'i 3-4 sajinni tashkil etganligini markaziy Rossiya imperiyasi markaziy shtabiga ma'lum qiladi.

Mustaqil Andxoyda 4000 xonadon, Andxoydan 80 verst Maymanada esa 1000 ta xonadonda asosan o'zbeklar yashaganligini tasdiqlaydi.

Meyendorf asarining 3-kitobining 1-bobida Buxoro amirligi chegaralari, geografik o'rni, daryolar, mamlakatning tasnifi yoritilishga harakat qiladi, va bunda Rossiya imperiyasi manfaatlaridan kelib chiqib yoritiladi.

Buxoro xonligining janubidagi Hisor bekligiga qarashli chegara Denov shahri to'g'risida ham ma'lumotlar keltiriladi. Amirlikning janubiy chegarasi Marvdan Amudaryoga boruvchi Marvda, Andxoy, Balx, Axcha manzillarining shimolida Denov joylashganligini aniqlaydi. Amirlikning sharqiy chegaralari Denovdan O'ratepagacha (Fon shahri bilan) cho'zilib ketganligini ham yozadi[6:84].

Meyendorfnings ta'kidlashicha G'uzordan Hisor-Denovgacha bo'lgan yo'lning shimolida Amudaryo tomonga Qarshi va Denov oralig'idagi tog'lik hududlardan iborat. Amudaryoning janubidan Qobulgacha karvonlar qatnov yo'llarini xaritaga tushiradi va harbiylar qo'shin to'xtashi mumkin bo'lgan manzillarni aniqlaydi[6].

Meyendorf sharqiy Buxoro chegaralarini tavsiflab, shimolda Buxoro, g'arbda Samarqand, janubda Amudaryogacha bo'lgan hududlar kirishini yozadi. Sharqiy Buxoroning butun g'arbiy qismi yassi pastlikdan, katta kichik adirliklardan iborat. To'palang, Surxob, daryolari Amudaryoga Termiz yaqinida quyiladi ammo bu suvning xo'jalik ahamiyati yo'qligini bildirdi, dehqonchilik uchun arzimagan qismigina ishlatilishini bildiradi.

Meyendorf Termizni yoki Tarmuz vayronalar shahridan faqat shag'al toshlar, loydan qilingan uylargina qolganligini ta'kidlaydi. Qachonlardir boy-badavlat yashnab turgan shahardan asar ham yo'qligini, xarobalar qolganligini yozadi. Termizdan shimolda joylashgan Sherobod shahri bekligining joylashuvi to'g'risida ham ma'lumot qoldiradi.

Meyendorf Negri ekspeditisiyasi ishtirokchilari Rossiya imperiyasiga sodiq, turli kasblardagi mutaxassislar edi.

Bular:

1) X.I.Pander (1794-1865) asli boltiqbo'yilik nemis, Rigada tug'ilgan, Paleontolog zoolog, embrionolog, tabiatshunos, arxelog, medik vrach bo'lib Negri missiyasida orientalist sifatida qatnashgan. Rossiya paleantologiyasining asoschilaridan hisoblanadi, 1821-yilda Peterburg Imperatorlik Fanlar Akademiyasining akademigi, O'rta Osiyoga sayohati davomida chorizm uchun muhim josuslik dalillarini yiqqan.

2) Eversmon E.A. (1794-1860) naturalist botanik, zoolog, entomology, shifokor, sayohatchi, ornitolog, tabiatshunos bo'lib, milllati nemis, Peterburg Fanlar Akademiyasining azosi Entsiklapedist Broxauze Eversman nafaqat Rossiya balki Yevropa olimlari, mutaxassislari bilan hamkorlik qilganligini, ustozi Berlin tabiat muzeyi professori M.Lixtenshteyn yordamida Buxoroga sayohat materiallarini 1823-1825 yillarda chop etganini, 55 ta ilmiy taqiqot qilganligini bildirgan. Ural va O'rta Osiyo tabiatini o'rganganligini, uning qozoqlar to'g'risidagi etnografik ma'lumotlari, Buxoro xonligi haqidagi dastlabki ilmiy izlanishlari 1823-yilda Berlin va Londonda chop etilgan nemis tilidagi "Orenburgdan Buxoroga sayohat" kitobida bayon qilinganligini ham ta'kidlagan. Bu asar Eversmanga Yevropada tanilishiga sabab bo'lgan. Negri elchilik tarkibida Eversmon Uzunburt daryosi bo'ylarida ko'mir konini topgan va kelajakda Orenburg o'lkasi uchun katta ahamiyat kasb etgan energiya manbaining kashfiyotchisidir. X.Pander bilan Buxoro xonligining botanika, zoologiya, flora, faunasi, bo'yicha qimmatli ma'lumotlar to'plagan va ularni Peterburg Fanlar akademiyasiga, Moskva tabiatshunoslar jamiyati va Berlin zoologiya muzeyiga topshirgan. Orenburg o'lkasining 3 tomlik tabiiy tarixini yozgan. Eversman E.A. 1820 – 1824 yillarda rus diplomati A.F. Negri ekspediyasida Orenburg xarbiy gubinatori P.K. Essen tavsiyasiga asosan, qatnashgan[2].

Elchilik missiyasi tugagach 1822-yilda "Shimoliy arxiv" jurnalida Rossiyaning Buxorodagi missiyasi shifokori Eversmannning 1-mart 1821-yil Sank-Peterburgga yozgan xati e'lon qilingan. Unda Buxoro xonligining an'anaviy tibbiyoti hikoya qilinadi. "Orenburgdan Buxoroga sayohat" asaridan parchalar turli jurnallarda rus tilida 1823-1824 yillarda chop etilgan, va katta shov-shuvlarga sabab bo'lgan[10].

3) Gvardiyachi General shtab kapitani E.K. Meyendorf elchilik missiyasi davomida Orenburgdan Buxorogacha butun ekspedetsiya marshurtlarini yoritib borgan, barcha to'plagan ma'lumotlarni jurnalga yozib borgan, astronomik kuzatishlar qilgan. Qirg'iz dashtlari va Buxoro amirligining umumiy general xaritasini tuzgan. 1826-yilda Parijda fransuz tilida keyinroq, bu asarga talablar oshib ketgach Yena (Avstriya)da nemis tilida chop etilgan. "Buxorodan Orenburgga sayohat" asari toshkentlik o'lkashunos – bibliograf E.K. Betger tomonidan to'lig'icha monografiya shaklida nashr qilingan, keyinroq sovet davrida 1976-yilda Moskvada ham nashr qilingan.

Agar Eversman xonlik poytaxtini qisqacha ta’riflab, butun e’tiborini xonlikdagi tabiat ishiga bag’ishlagan bo’lsa, Meyendorf har 3 ta xonlikning geografiyasi, shahar va qishloqlari, etnografiyasi, hunarmandchiligi, aholisi, me’moriy obidalariga karvon yo’llari va karvon saroylar, madrasalar va boshqalarga katta e’tibor bergan[5].

4) Valxovskiy D.V (1798-1841) gvardiya general-shtab zobiti 24-iyul 1820 Negri ekspeditsiyasida 10-oktyabrdan 12-may 1822-yilgacha safarda bo’lgan. Ekspeditsiya tarkibidagi injener-poruchik K.M.Tofayev va K.D.Artyuxovlar keyinchalik O’rta Osiyo bo’yicha tadqiqotchi, Orol-Kaspiy xarbiy-topografik ekspeditsiyalar rahbari F.Bergning ekspeditsiyalarida ham qatnashganlar (1820, 1824, 1828-1826). 1824-yilgi geologik topografik, gidrografik chegaralarni aniqlashni maqsad qilgan Berg ekspeditsiyasida general shtab zobiti V.D.Voexovskiy va E.D.Eversmanlar ham bor edi.

F.F.Berg va A.F.Negri, E.K.Meyendorf (1820-1821) va boshqa ekspeditsiyalar natijasida birinchi “Qirg’iz-qaysoqlar va Turkiston yerlarining xaritasi” tuzilgan. Xarita muallifi rus armiyasining podpolkovnigi A.K.Tifomev ishining davomi sifatida. 1832-yilda A.I.Lyovshenning “Описание киргиз-казахских или киргиз-кайзюкских орд и степей” asari nashr etildi [9].

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Бартольд В.В. История изучения Востока в Европе и России. — СПб., 1914.
2. Дмитриев Ю.А. Неудомимый исследователь Оренбургского края // Бердская слобода.
3. Инструкция Министерства иностранных дел от 25 июля 1820 г.
Архив внешней политики России (АВПР), СПб, Главный архив, ф. 1-7, оп. 6, д. 1820-1, папка 11, лл. 9–10.
4. История Мукумхана (Тарихи Мукумхани).
Мухаммад Юсуф Муниши; пер. с тадж., предисл., примеч. и указ. А.А. Семёнова; отв. ред. Д.Т. Барановский // В.В. Бартольд История изучения Востока в Европе и России. — СПб., 1914.
5. История Узбекистана в источниках. — Ташкент: Фан, 1988. — С. 195.
6. Мейендорф Э.К. Краткое начертание путешествия российского посольства из Оренбурга в Бухару в 1820 году. Северный архив. — 1822. — Ч. 1, № 2. — С. 184–193.
7. Письмо А.Ф. Негри из Бухары от 15 января 1821 г. АВПР, СПб, ф. II, л. 30–34, 56–64.
8. Проект об установлении Российской торговли с Верхней Азией через Хиву и Бухару.
9. Путеводитель по природе Западного Казахстана: путешествие Фёдора Берга.